

## CHET TILI DARSLARIDA YOZMA NUTQNING DOLZARBLIGI

G'afurova Sh.A.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
nemis tili amaliy fanlar kafedrasи o'qituvchisi

**Abstract:** this article discusses the formation and development of writing skills in foreign language learning. It was noted that in order to increase the interest in learning a foreign language, it is important that the teacher organizes the lesson methodically correct and rich in didaktiks. Several ways to develop writing skills and increase interest in it are given as examples.

**Key words:** writing skills, foreign language lessons, students, vocabulary, effective methods.

**Аннотация:** в данной статье рассматривается формирование и развитие навыков письма при изучении иностранного языка. Подчеркнуто, что учителю важно методически правильно и дидактически организовать урок, чтобы повысить интерес к изучению иностранного языка. Вот несколько примеров того, как развить навыки письма и повысить интерес к письму.

**Ключевые слова:** навыки письма, уроки иностранного языка, учащиеся, словарный запас, эффективные методы.

**Annotasiya:** ushbu maqolada chet tilini o'rgatishda yozish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish muhokama qilinadi. Chet tilini o'rganishga qiziqishni oshirishda o'qituvchining darsni uslubiy jihatdan to'g'ri va didaktikaga boy tashkil etishi muhimligi ta'kidlandi. Misol tariqasida yozish ko'nikmalarini rivojlantirish va unga qiziqishni oshirishning bir necha usullari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** yosish ko'nikmasi, chet tili darslari, talabalar, lug'at, samarali usullar.

Hozirgi kunda xalqaro aloqalarning kengayib borishi xorijiy tillarni mukammal bilishni taqazo etmoqda. Buning uchun chet tili darslarida qisqa muddatda tez va oson o'rgatishning innovativ usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Darslarni mahorat bilan tashkil etish esa o'qituvchining ijodkorona yondoshuviga bog'liqdir. Dars jarayonida qo'llanilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali talabalarda horijiy tilda erkin so'zlash, o'z fikrini boshqalarga tushuntira olish ko'nikmalar shakllantiriladi. Zamonaviy pedagogik yechimlar orqali o'qituvchi talabalarni darsga qiziqishini ortishiga va maqsadli boshqara olishga erishadi. "Zero, ta'larning asosiy maqsadi ta'lim oluvchiga bilim berish, ta'lim olish yo'llarini o'rgatish va talabani ta'lim jarayonida faol ishtirokchiga aylantirishdir" [1. 24-bet].

Til ko'nikmalaridan biri bo'lgan *Yozish* ham talabalarni savodli, raqamli va demokratik jamiyatda ishtirok etishni ta'minlashda muhim o'rinni tutadi. *Yozish* ko'nikmasi nafaqat mifik tabda, universitetda balki kundalik kasbiy va shaxsiy hayotda ham talab qilinadi. *Yozuv* deb nutqning matn orqali ifodalananishiga aytildi.

"Chet tili darslarida *Yozish*, nutq kabi muhim ko'nikmalardan biridir. Bu shuni anglatadiki, o'qish va tinglashdan farqli o'laroq, o'quvchilar jumlalar yoki matnlarni o'zları yaratishlari kerak bo'lgan qiyinchiliklarga duch kelishadi" [2. 131-bet]. "Yozuv kognitiv murakkabligi bilan ajralib turadigan nutq faoliyatidir". [3.992-bet]

Yozishning eng muhim vazifasi fikr, ma'lumot almashish orqali muloqot qilishdir. Bu erda matn turlicha ko'rinishlarda qo'llaniladi va har bir matn turi o'z vazifasiga ega. Shu ma'noda Kieweg yozishni quyidagi turlarga ajratadi:

Shaxsiy aloqalarni saqlash uchun yozish, hissiy, ma'lumot beruvchi, bahslashuvchi, qiziqarli va ijodiy. [4. 3-bet]. Shu nuqtai nazardan Schreiter quyidagilarga ajratadi: yo'naltirilgan va erkin yozish. [5. 2002 ]

Tayyor qolipga solingan grammatik yoki leksik mashqlarni bajargandan ko'ra erkin yozishdan tez-tez foydalanish talabani til o'rganishga bo'lgan motivasiyasini oshiradi;, yaratish qobiliyatini, fikrlash doirasini hamda so'z boyligini

kengaytiradi;; tajribalarni qayta birlashtirishni, yangi g'oyalar topishni, muammolarni hal qilishni o'rgatadi.

Chet tili darslarida yozish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda samarali natija bergen usullardan ayrimlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

-Talabalani ona tilidan chet tiliga tarjima qilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri chet tilida yozishga undash kerak. Chunki ona tilidan tarjima qilish fikrni xorijiy tilda to'g'ridan-to'g'ri shakllantirishdan ko'ra ancha muammolidir.

-Lug'atdan har bir so'zni qidirmaslik kerak. Bu jarayonda ko'p vaqt va ko'pincha fikrlarning umumiylarini mavzusini yo'qotib, chalg'ish mumkin. Avvalo umumiylarini xatolar bilan bo'lsada qoralamasini yozib olish kerak. Matnni shakllantrib olgach ayrim so'zlarni lug'atdan topib, to'g'irlash mumkin.

-Talabalar yozishni tugatgandan so'ng, o'qituvchi matnlarini qayta ko'rib chiqishlari uchun ularga vaqt berishi kerak.

- 2 kishi hamkorlikda yozish ham samaralidir. Bunda matn yozishdagi go'yalar o'zaro fikr almashinuvida boyitib boriladi, til ko'nikmalari sheriklikda solishtirib, matnni imkon qadar to'g'irligiga va vaqtadan yutishga erishiladi. Matn yozish tugagandan so'ng matnlar boshqa hamkorlar o'rtasida almashib o'qilishi yoki barchaga o'qib eshittirilishi mumkin. Har bir matn o'qilgandan so'ng o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun izoh berilishi, qarsaklar yoki ijobjiy ko'rinishdagi minnatdorchilik albatta bildirilishi lozim.

- Yaxshi yozish uchun o'qish jarayonida ham talabidan diqqatli bo'lismi, matn tuzilishi, boshi va oxirini kuzatishi;, undagi soz va iboralarni, kerakli brikmalarni belgilab, kelgusida ishlatish maqsadida qayd etib, yodlab borishi talab etiladi.

- So'z va fikrlarni yig'ish orqali dastlabki yengillikni ta'minlash, motivasiya beruvchi muhit yaratilishi ahamiyat kasb etadi. Bunda assotsiogram, rasmlar, klaster, savollar mavzu markazida bo'ladi.

-Ijodiy yozish jarayonida o'quvchilar xatolarga emas, balki matnlarga e'tibor

qaratishlari kerakligi ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi ham o'z o'rnida xatolar

bilan moslashuvchan munosabatda bo'lishi kerak. Ya'ni, o'quvchilar xato qilishadi, uni qizil ruchkada emas balki boshqa rangdagi ruchkada to'g'irlashi, asosan matn mazmuni xaqida fikr bildirishi maqsadga muvofiqdir. Xatolar qizartirib tuzatilganda, o'rganuvchi xato qilishdan cho'chib ijodiy yondosha olmasligi, tayyor yodlangan jumlalardan yoki ko'chirishdan ko'proq foydalanishi mumkin. Shuning uchun matn orfografik/grammatik me'yorlar bo'yicha baholanmaydi. Biroq, imlo va grammatikani o'rganish kerak bo'lgan usullardan voz kechilmaydi. Möller-Frorath, M. fikriga ko'ra, "...xatolarni tuzatish paytida ijodiy yozish bo'yicha talaba o'z fikrlariga e'tibor qaratmaydi, bu jarayonni sekinlashtiruvchi, cheklovchi ta'sirga egadir." [6. 47-bet]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozuv jarayonini til o'rganishning dastlabki bosqichidanoq shakllantirib, matn yozishni muntazam qo'llab turish kerak. Yuqorida keltirilgan amaliy takliflar orqali o'qituvchi darsni qiziqarli bo'lishiga, talabalarda *Yozish* ko'nikmasi mukammal shakllanishiga erishishi mumkin. Til o'rganish majburiy yoki zo'riqib yodlash bilan emas balki kuchli xohish va maqsad bilan o'rganilganda yaxshi natija beradi.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Селевко Г.К. - Современные образовательные технологии. -1998,- стр.24.
2. Huneke/Steinig 2010, - Sprachdidaktik Deutsch by Wolfgang Steinig; Hans-Werner Huneke - ISBN 10: 3503122400 - ISBN 13: 9783503122400 - Erich Schmidt Verlag - 2010 - Softcover. Seite-131
3. Mohr, Imke - Vermittlung der Schreibfertigkeit. In H.-J. Krumm; Fandrych, C.; Hufeisen, B. & Riemer C. [Hrsg.], Deutsch als Fremd – und Zweitsprache. Ein internationales Handbuch. Band I (S. 992-997) Berlin & New York- 2010
4. W. Kieweg W. 2009. Schreibprozesse gestalten, Schreibkompetenz entwickeln. In: Der fremdsprachliche Unterricht Englisch 43/97 (2009), Seiten 2-8.

5. Schreiter, Ina. - Schreibversuche. Kreatives Schreiben bei Lernern des Deutschen als Fremdsprache. – München 2002.
6. Möller-Frorath, Monika. - Schreiben in: Brinitzer, Michaela, Hantschel, H.J. et. al. DaF unterrichten. Basiswissen Didaktik. Deutsch als Fremd- und Zweitsprache. Stuttgart-2016.. Klett.
7. [www.Sprachenzentrum.fu-berlin.de](http://www.Sprachenzentrum.fu-berlin.de)